

Yangi Pedagogik Texnologiyalarni Qo‘Llab Jismoniy Madaniyat Darslarining Samaradorligini Oshirish

Baymuradov Radjab Sayfitdinovich

Buxoro davlat universiteti, “Sport faoliyati” kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Jismoniy madaniyat dars jarayoni pedagogik jarayonning ajralmas bir qismi bo‘lib, u o‘z kelayotgan yosh avlodni ta‘lim-tarbiya jarayonida har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashga qaratilgan asosiy pedagogik vositalardan ekanligini olib borgan kuzatishlarimiz jarayonida o‘z aksini topmoqda. Jismoniy madaniyat darsi har tomonlama yangi pedagogik tamoyillarni o‘z ichiga olib, ta‘lim-tarbiya jarayonida qo‘llanilishi kerak bo‘lgan vazifalarga tayanadi.

Kalit so‘zlar: Yangi pedagogik axborot texnologiya, ta‘lim jarayoni, interaktiv metodlar, axborot texnologiyalari.

Barkamol avlod orzusi-eng buyuk orzu. O‘zbekistonning kelajagi buyuk ekaniga qat’iy ishonch bilan yashayotgan xalqimizning orzusi bu. Mustaqillik yillarida ezgu maqsadlarimizni ro‘yobga chiqarish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Uzluksiz ta‘limning “o‘zbek modeli” sifatida e’tirof etilgan va bugun o‘z samarasini berayotgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” o‘z vaqtida uzoqni ko‘zlab boshlagan olamshumul ishlarimizning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ta‘lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash hozirgi kunda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishidir.

O‘quv muassasalarida jismoniy madaniyat, sport sog‘lomlashtirish ishlarini rivojlantirish, ta‘lim olayotgan talaba-yoshlarning sport turlariga qiziqishini oshirish, bilimi, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash davr talabiga aylanib bormoqda. Jismoniy madaniyat fanini o‘qitish sifati va samaradorligini tubdan yaxshilash, uni hayot bilan uzviy bog‘lagan olib borish o‘quvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga, Vatanni himoya qilishga tayyorlash juda muhimdir.

Hozirgi kunda mamlakatimizning oliy ta‘lim muassasalari oldida yosh mutaxassislarni tayyorlash samaradorligini oshirish usullarini izlash, o‘qitishning shakl va metodlarini ratsionallashtirish muammosi turibdi. Bu muammo odamlar hayotida tobora ahamiyatga ega bo‘lib borayotgan jismoniy madaniyat va sport sohasida ham dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizda yangi pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini yaratish va amaliyotga tadbqiq etish zaruriyati ta‘lim tizimini isloh qilish, uning salohiyatini jahon miqyosiga olib chiqish, ta‘lim bozorini yaratish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash vazifasidan kelib chiqadi. Bugungi kunda barcha ta‘lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyani joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jismoniy madaniyat dars jarayoni pedagogik jarayonning ajralmas bir qismi bo‘lib, u o‘z kelayotgan yosh avlodni ta‘lim-tarbiya jarayonida har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashga qaratilgan asosiy pedagogik vositalardan ekanligini olib borgan kuzatishlarimiz jarayonida o‘z aksini topmoqda. Jismoniy madaniyat darsi har tomonlama yangi pedagogik tamoyillarni o‘z ichiga olib, ta‘lim-tarbiya jarayonida qo‘llanilishi kerak bo‘lgan vazifalarga tayanadi. Jismoniy madaniyat

darsi va uni boshqaruvchilik tizimi o'ta murakkab bo'lib, ko'rinishi o'ziga xos bo'lgan nazariy, amaliy, mustaqil ta'limlarni joriy etishni talab etadi. Bir ko'rinishda jismoniy madaniyat dars jarayoni oddiy bo'lsada lekin, unda bajariladigan harakat amallari o'quvchi-talabalarni har tomonlama ko'nikma va malakalarni rivojlantirishni talab etadi. Shunga asosan jismoniy madaniyat dars jarayonida yangi pedagogik axborot texnologiyalaridan foydalanish bugungi ta'lim tarbiya jarayonining dolzarb yo'nalishlaridan biri ekanligini hayotni o'zi taqozo etmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, pedagogik texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talaba faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu tarbiyalanuvchiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Jismoniy madaniyat dars jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani qo'llash masalasiga kelsak, texnologiyaning o'zi nima? -degan savol tug'iladi. Haqiqatdan ham bir ko'rinishda jismoniy madaniyat darsiga yangi pedagogik texnologiya nima uchun qo'llanishi kerak, bu shuning uchun kerakki dars jarayonini yaxshilash orqali o'quvchi-talabalarni har tomonlama jismoniy rivojlantirish va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish uchun ham yangi texnologiyalardai foydalanish kerak. Har qaysi jismoniy madaniyat o'qituvchisining tajribasi ilg'or deb topilsa, shuni yangi texnologiya sifatida jismoniy madaniyat ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llash mumkin. Shuning uchun ham jismoniy madaniyat darsini o'tishda yangi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Biz bunday dolzarb bo'lgan masalaga qo'l urar ekanmiz, bu sohada tez sur'atlar bilan keskin e'tibor berish kerakligini aytib o'tmoqchimiz, jismoniy madaniyat va sport ayni vaqtda O'zbekistonimizni xalqaro maydonda o'z o'rnimiz borligini belgilab bergan vaqtda jismoniy madaniyat dars mashg'ulotlarining milliy istiqloq g'oyasi tomonidan e'tiborli tomoni shundaki har qancha qiyin bo'lmasin fidokorlik bilan o'z kasbiga fidoiylilik, mardlik namunalarini ko'rsatish vaqti etib kelganligini yana bir karra eslatmoqchimiz. Bunday ishlarni hal etish uchun hamma imkoniyatlar yaratib berilgan. Bunday imkoniyatni soha mutaxassislari o'zlarining vazifalari va burchlari deb qabul qilsalar, bu sohada sodir bo'layotgan muammolarni bartaraf etish yo'llarini izlasalar maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

Bundan shunday fikr chiqadiki, fan-texnika yutuqlarining mislsiz darajada taraqqiy etishi, hamda bu taraqqiyot natijalarining oddiy insonlar hayotiga juda qisqa muddatlarda keng kirib kelayotganligi bilan tavsiflanadi. Talabalarining izlanuvchanligi, ijodkorligi, oz vaqt, kam kuch sarflab yuqori natijalarni ta'minlashida, shuningdek, talabalarining ijodiy faoliyati samaradorligini oshirishda yangi pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanib faollashtirishi muhim omil hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boymuradov R. S. Milliy sport o'yinlarini tashkil etish muammosi bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 1333-1341.
2. Baymuradov R. S. Z. Boboeva—Sportchilarning emotsional holatlari diagnostikasi //SCIENCE AND EDUCATION//SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN. – C. 2181-0842.
3. Sayfitdinovich B. R., Ziyoevich F. Y. Development of a physically healthy generation. – 2022.
4. Баймурадов Р. РОЛЬ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 36. – №. 36.
5. Баймурадов Р. С., Бахшуллаева М. З. Бобоева—Особенности спортивной мотивации у спортсменов с ограниченными возможностями здоровья // Вестник интегративной психологии //Журнал для психологов. – №. 26. – С. 25-38.

6. Тураев М. М., Баймурадов Р. С., Файзиев Я. З. Интерактивные методы физического воспитания в вузах //Педагогическое образование и наука. – 2020. – №. 3. – С. 132-135.
7. Baymuradov R.S. Yosh mutaxassisni shakllantirishda o'qituvchi-murabbiyning o'rni // Pedagogik akmeologiya Xalqora ilmiy –metodik jurnal 6(8) 2023 yil 37-42 bet.
8. Baymuradov R.S., Nasimova N.I. Yakka tartibdagi ish –o'qituvchi faoliyatidagi muvaffaqiyat garovi // Pedagogik akmeologiya Xalqora ilmiy –metodik jurnal 1(9) 2024 yil 73-77 bet.
9. Abdullaev K., Juraev B., Khabibova G. Food quality and safety control as an important factor of physical development //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 460. – C. 11001.
10. Jo'rayevich M. J., Laziz J. JISMONIY TARBIYA VA SPORT-YOSHLARNING IJTIMOIIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRUVCHI VOSITA SIFATIDA //Journal of Innovation in Education and Social Research. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 98-101.